



THE EDUCATIONAL SIGNIFICANCE OF STUDYING THE SCIENTIFIC HERITAGE OF IMAM DORIMIY

Yakubova Ziyoda Ulug`bek qizi

International Islamic Studies Academy of Uzbekistan

2nd year master's student in Islamic Studies

Durbek Abidjanovich Rakhimdjanov

Candidate of Historical Sciences, Associate Professor.

ICESCO Chair for Islamic Studies and Islamic Civilization.

International Islamic Studies Academy of Uzbekistan.

+998935278075, durbekr@yahoo.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20325358>

ARTICLE INFO

Received: 16th May 2026

Accepted: 20th May 2026

Online: 21st May 2026

KEYWORDS

Imam Dorimiy, hadith science, education and upbringing, motivation, intention, Islamic pedagogy.

ABSTRACT

This scientific article provides a comprehensive and systematic analysis of the significance of the scientific heritage of Imam Dorimiy, his hadiths collected in his work "Sunan ad-Dorimiy" in the educational process. The main purpose of the study is to reveal the interrelationship of the issues of encouragement to science, intention, motivation and moral education on the basis of hadiths, and to scientifically substantiate its management in harmony with modern pedagogy and psychology.

ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЕ ЗНАЧЕНИЕ ИЗУЧЕНИЯ НАУЧНОГО НАСЛЕДИЯ ИМАМА АД-ДАРИМИ

Якубова Зиёда Улугбек кизи

Международная академия исламоведения Узбекистана

2 курс магистратуры по исламоведению

Дурбек Абиджанович Рахимджанов

кандидат исторических наук, доцент.

Кафедра исламоведения и исламской цивилизации ИСЕСКО.

Международная академия исламоведения Узбекистана.

+998935278075, durbekr@yahoo.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20325358>

ARTICLE INFO

Received: 16th May 2026

Accepted: 20th May 2026

Online: 21st May 2026

KEYWORDS

Имам Доримий, наука о хадисах, образование и воспитание, мотивация, намерение, исламская педагогика.

ABSTRACT

Данная научная статья представляет собой всесторонний и систематический анализ значения научного наследия Имама Доримия, хадисов, собранных в его труде «Сунан ад-Доримий», в образовательном процессе. Главная цель исследования – выявить взаимосвязь вопросов поощрения к науке, намерения, мотивации и нравственного воспитания на основе хадисов, а также научно обосновать его использование в соответствии с современной педагогикой и психологией.



IMOM DORIMIY ILMIY MEROSINI O'GANISHNING TARBIYAVIY AHAMIYATI

Yakubova Ziyoda Ulug`bek qizi

O'zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi

Islomshunoslik mutaxassisligi 2-kurs magistranti

Durbek Abidjanovich Rahimdjanov

Tarix fanlari nomzodi, dotsent.

ICESCO Islomshunoslik va Islom sivilizatsiyasi kafedrası.

O'zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi.

+998935278075, durbekr@yahoo.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20325358>

ARTICLE INFO

Received: 16th May 2026

Accepted: 20th May 2026

Online: 21st May 2026

KEYWORDS

Imom Dorimiy, hadis ilmi, ta'lim va tarbiya, motivatsiya, niyat, islom pedagogikasi.

ABSTRACT

Mazkur ilmiy maqolada Imom Dorimiy ilmiy merosining, xususan, uning "Sunan ad-Dorimiy" asarida jamlangan hadislarning ta'lim-tarbiya jarayonidagi ahamiyati kompleks va tizimli ravishda tahlil qilinadi. Tadqiqotning asosiy maqsadi hadislar asosida ilmga rag'bat, niyat, motivatsiya va axloqiy tarbiya masalalarining o'zaro bog'liqligini ochib berish hamda ularning zamonaviy pedagogika va psixologiya bilan uyg'un jihatlarini ilmiy asoslashdan iborat.

Ilm va ta'lim masalasi tarixiy manbalarda, xususan hadis to'plamlarida, insonning intellektual va axloqiy rivojlanishi bilan chambarchas bog'liq holda yoritilgan. Imom Dorimiy "Sunan" asarida ilmga bo'lgan munosabat, uni egallash jarayonidagi niyat kabi omillar hamda bilim olishning shaxs va jamiyat rivojida o'rniga aloqador hadislar ilm haqidagi bobda jamlangan.

Ibn Mas'ud (r.a.)dan rivoyat qilinadi: "Ilmni uch narsa uchun o'rganmang: u bilan nodonlar bilan bahslashish uchun, u bilan olimlar bilan tortishish uchun, u bilan odamlar yuzini o'zingizga qaratish uchun. Balki, so'zlaringiz bilan Alloh huzuridagi mukofotni maqsad

qiling. Chunki u abadiydir va qoladi, boshqasi esa yo'q bo'lib ketadi."

Shuningdek, shu isnod bilan u zot aytadi:

"Ilmning manbalari bo'linglar, hidoyat chiroqlari bo'linglar, uylarning doimiy ahli bo'linglar, tunning chiroqlari bo'linglar. Qalblarni mustahkamlanglar, kamtarona kiyininglar. Sizlar osmon ahlida tanilarsiz, yer ahlidan esa yashirin bo'lasizlar"¹.

Bu jihatdan qaralganda, "Sunan"da keltirilgan ilmga oid rivoyatlar zamonaviy ta'lim psixologiyasidagi motivatsiya tushunchasi bilan aloqadordir. Bundan tashqari, islom o'z ummatini ilm talab qilishga buyuradi va bunga rag'batlantiradi. Ilm talab qilish haqidagi bu buyruq, o'qish jarayonini

¹ Imom Dorimiy. Sunan ad-Dorimiy. – J:1. Ar-riyod: Maktabatul asoryatu, 2004. 260 hadis. – B.62.



yanada kuchaytirish va har bir insonda o'rganishga bo'lgan ishtiyoqni oshirish uchun zarur bo'lgan omillar bilan birga keladi. Eng asosiy omillardan biri bu motivatsiyadir.

Ta'lim olish motivatsiya bilan bog'liqdir. Motivatsiya o'qish jarayonining turli jihatlariga ta'sir ko'rsatishda muhim rol o'ynaydi. Motivatsiya, bu insonni ma'lum bir faoliyatni bajarishga undaydigan sharoitlarni yaratish uchun qilinadigan harakatlardir.

Motivatsiya deganda insonni harakatga keltiruvchi narsa yoki niyat tushuniladi. Motivatsiya insonning o'z ichidan ham kelishi mumkin, shuningdek, ijtimoiy muhit orqali ham shakllantiriladi. Ilm talab qilishda motivatsiya juda zarurdir. Hatto ko'plab hadislar ilm olishning fazilati va uni talab qilishga buyruq haqida bayon qiladi.

Bu hadislarining barchasi har bir musulmonni ilm talab qilishga undovchi asosiy dalillar bo'lib xizmat qiladi. Rasululloh (s.a.v.)ning sahobalarga ruhiy tarbiya singdirishdagi muvaffaqiyatlari ularning ichki motivatsiyasiga bog'liq edi. Sahobalar ilm olishga juda kuchli ishtiyoq bilan qaraganlari uchun, ular Payg'ambar (s.a.v.) dan eshitgan har bir narsalarini qabul qilganlar va tatbiq qilganlar².

Ba'zi sahobalar doimo Rasululloh (s.a.v.) ga yaqin bo'lishga harakat qilib, u zotdan ilm olishga intilganlar. Motivatsiya tushunchasi psixologiyada muhim o'rin egallaydi, ammo islom

ta'limi olimlari tomonidan yetarlicha o'rganilmagan.

Shuning uchun hozirgi davrda musulmonlar orasida motivatsiya bo'yicha ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish zarur. Chunki Qur'on va hadislar motivatsiya nazariyasiga ishora qiluvchi ko'plab dalillarni o'z ichiga oladi.

Ta'lim Islom dinining ajralmas qismidir. Payg'ambar Muhammad (s.a.v.) hadislar orqali ilm va ta'limning ahamiyatini ko'plab marta ta'kidlaganlar.

Zamon rivojlanishi bilan ta'lim jamiyat taraqqiyotining asosiy omiliga aylandi. Shuning uchun Islomda ilmga bo'lgan motivatsiyani tushunish, uni niyat bilan aloqadorligini aniqlash zarur. Birlamchi turtkilar fitriy yoki tabiiy motivatsiya sifatida qaraladi. Ular insonning biologik ehtiyojlari bilan bog'liq bo'lib, masalan, ochlik va chanqoqlik kabi ehtiyojlar inson tomonidan maxsus harakat talab qilmasdan tabiiy ravishda yuzaga keladi. Ikkilamchi turtkilar esa insonning tajribasi, tarbiyasi va o'rganish jarayonlari orqali shakllanadigan motivatsiya bo'lib, ular shaxslar o'rtasida turlicha darajada namoyon bo'ladi³.

Umumiy ma'noda motivatsiya niyat tushunchasi bilan ham izohlanadi. Niyat insonni muayyan harakatga undaydigan ichki sabab sifatida tushuniladi. Biroq bu yerda niyat ibodatlarda (namoz, ro'za, tahorat va boshqalar) qo'llaniladigan niyatdan farq qiladi. Har qanday insoniy faoliyat aslida niyat yoki motivatsiya bilan boshlanadi. Bu holat Rasululloh

² Ryan, R. M., & Deci, E. L. (2000). Intrinsic and extrinsic motivations: Classic definitions and new directions. *Contemporary Educational Psychology*, 25(1), 54–67. <https://doi.org/10.1006/ceps.1999.1020>

³ Kaysi. (2018). Motivation in Islamic psychology: Primary and secondary drives. *Journal of Islamic Studies*, 12(3). – P. 45–60.



(s.a.v.)ning mashhur hadislari bilan ham tasdiqlanadi: “Albatta, amallar niyatlarga bog‘liqdir”⁴. Yuqoridagi hadis niyatning har qanday amalni boshlashdagi muhimligini tushuntiradi. Niyat bo‘lmasa, amalga oshirilgan ish ma‘nosiz bo‘lib qoladi. Islom dinida niyatning o‘rni juda muhim hisoblanadi, chunki qiyomat kuni amallar hisobga olinayotgan paytda aynan niyat amalning yaxshi yoki yomon ekanini belgilovchi asosiy mezon bo‘ladi.

Kim qalbi yoki sezgi a‘zolari orqali, ozmi-ko‘pmi ilm izlab, to‘g‘ri niyat qo‘ygan holda va undan foyda olishni umid qilib yo‘l izlasa, Alloh unga jannatga olib boradigan yo‘lni oson qilib qo‘yadi.

Alloh tomonidan jannat yo‘lining osonlashtirilishi shundan iboratki, o‘sha ilm insonni jannatga olib boradigan amallarni bajarishga yo‘naltiradi. Ilm orqali inson o‘z zimmasidagi farzlarni biladi va ulardan uzoq bo‘lishi kerak bo‘lgan narsalarni anglaydi. U aqida va ibodatni buzadigan omillarni tushunadi, shuningdek, halol va haromni farqlash imkoniga ega bo‘ladi. Shu sababli ilmga ega bo‘lgan kishi jannatga eltuvchi amallarni bajarishda qiynalmaydi.

Rasululloh (s.a.v.) Alloh tomonidan insonlarni to‘g‘ri yo‘lga hidoyat qilish uchun yuborilgan. Bu yo‘l dunyo va oxirat saodatiga, najot va izzatga olib boruvchi yo‘ldir. Bunga erishish uchun ilm asosiy kalit hisoblanadi. Payg‘ambar (s.a.v.) doimo ilm talab qilishga rag‘batlantirgan va olimlarni payg‘ambarlarning merosxo‘rlari deb ta‘riflagan.

Ushbu hadis ilm talab qilayotgan insonlarni rag‘batlantiradi: ilm diniy bo‘ladimi yoki dunyoviy bo‘ladimi, uni o‘rganish va uni amal qilish orqali jannat

yo‘li yengillashtiriladi. Har ikki turdagi ilm ham insonni jannatga yetaklovchi vosita bo‘lishi mumkin.

Mazkur hadis shuningdek ilm talab qiluvchilar uchun kuchli dalda hisoblanadi, chunki Alloh ilm izlovchini himoya qilishini va‘da qilgan. Hadisda farishtalarning ilm talab qiluvchilarga hurmat sifatida qanotlarini yoyishi ham zikr etilgan. Bu holat ikki xil ma‘noda tushuniladi: majoziy ma‘noda — hurmat va kamtarlik, haqiqiy ma‘noda esa farishtalar rozilik sifatida qanotlarini ilm talab qiluvchilarga yoyadi.

Shuningdek, ilm talab qiluvchi uchun osmon va yer ahli tomonidan mag‘firat so‘raladi. Osmon va yerda, quruqlik va dengizda mavjud barcha mavjudotlar ilm izlovchi uchun Allohdan mag‘firat so‘raydi.

Hadisning mazmuniga ko‘ra, Alloh ilm egalarining darajasini qiyomat kuni ularning maqomini ko‘tarish orqali yuksaltiradi. Alloh ularni alohida fazilat va yuksak martaba bilan mukofotlaydi, ayniqsa ilm bilan amalni birlashtirgan insonlar uchun. Chunki ilm va yuksak martaba insondan amaliy harakatni talab qiladi va uni yanada mukammal qilishga undaydi.

Shu sababli, ilm faqat dunyoviy bilim olish vositasi emas, balki Allohga yaqinlashishning muhim vositasi sifatida ham qaraladi. Ilm egasi bo‘lgan inson haqiqatni tarqatish, jamiyatga yo‘l ko‘rsatish va boshqalarga ibrat bo‘lish mas‘uliyatini zimmasiga oladi. Shu bilan birga, u dunyo va oxiratda yuksak darajaga ega bo‘ladi.

Oila bu tarbiyaning birinchi bosqichi. Ota-onaning o‘rnak bo‘lishi,

⁴ Imom Buxoriy. Sahih al-Buxoriy. – Bayrut: Dor al-Salom, 1999. – B.12.



mehr bilan yondashuvi, ibratli hayoti farzand tarbiyasining mezoni hisoblanadi. Farzandni yoshligidan boshlab yaxshi odatlarga, pok axloqqa, ilmga, mehnatsevarlik va sabrga o'rgatish kerak. Bu esa ota-onaning doimiy mehnatini talab etadi. Hadislar ota-onaning bu boradagi mas'uliyatini chuqur aks ettiradi. Muhammad (s.a.v.)ning tarbiyaviy metodlari ham bugungi zamon uchun o'ta dolzarbdir. U zot savol-javoblar, hikmatli so'zlar, amaliy namunalar orqali sahobalar va yosh bolalarni o'rgatganlar. Eng samarali tarbiya usuli bu o'rnak bo'lishdir. Rasululloh (s.a.v.) har bir ishda avval o'zlari ibrat bo'lganlar. Bu esa tarbiyaning engkuchli quolidir. U zot bolalarni urmasdan, ranjitmasdan, balki rag'batlantirish, tushuntirish, sabr bilan yondashish orqali tarbiya qilganlar. Zamonaviy pedagogikada ham shunday metodlar samarali hisoblanadi. Yuqori ma'naviyatga asoslangan tarbiya tizimida hadislar o'ziga xos manba hisoblanadi. Unda ilm egallash, axloqiy yetuklik, jamiyatda o'zini tutish madaniyati va mas'uliyat hissi keng yoritiladi. Ilmga intilish va o'z ustida doimiy ishlash insonni barkamol shaxs sifatida shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. Ta'lim-tarbiyada aynan shu ruhdagi yondashuvlar zamonaviy sharoitda ham dolzarbligini yo'qotgani yo'q. Shaxsiy tarbiya bilan bir qatorda, ijtimoiy axloq masalalari ham hadislar orqali yoritilgan. Rostgo'ylik, halollik, sadoqat, kamtarinlik, g'iybatdan yiroq bo'lish, mehr-oqibatli munosabatlarkabi qadriyatlar jamiyatda sog'lom muhit yaratishda katta ahamiyatga ega. Bu fazilatlar har bir insonning kundalik hayotida, oilasida, ish joyida yoki ta'lim

muassasasida muhim o'rin tutadi. Hadislar asosida tarbiyaning eng asosiy prinsipi ibrat bo'lish tamoyilidir. Ta'lim beruvchining so'zlari emas, balki amali orqali tarbiya samarador bo'ladi.

Yoshlar o'z atrofidagi kattalardan, ayniqsa o'qituvchi va ota-onalardan ijobiy namuna olish orqali shakllanadi. Shu bois, tarbiyada faqat og'zaki nasihat emas, balki hayotiy pozitsiya va shaxsiy namuna muhimdir. Tarbiya jarayonida bolalarga nisbatan sabr, e'tibor va mehr bilan yondashish eng muhim omillardan biridir. Ilmni o'rgatishda bolalarning yoshiga, psixologik holatiga va individual xususiyatlariga qarab mos metodlar qo'llanishi kerak. Bugungi pedagogika fani ham shaxsga yo'naltirilgan yondashuvni birinchi o'ringa qo'yadi. Bu yondashuv o'z ildizlarini islomiy tarbiya asoslaridan olgan. Shuningdek, ayollarning tarbiyasi va ularning ilm olishga bo'lgan huquqlari ham hadislar orqali yoritilgan. Ayolga nisbatan hurmat, unga bilim berish va uni qo'llab-quvvatlash jamiyatning rivoji uchun muhim poydevordir. Ma'naviy tarbiyada gender tengligi, o'zaro hurmat va oilaviy mas'uliyat masalalari ustuvor ahamiyatga ega. Bundan tashqari, zamonaviy ta'lim tizimida hadislarini amaliyotga tadbiiq etish orqali o'quvchilarda ma'naviy immunitetni shakllantirish mumkin. Bu esa yosh avlodni zararli axborot oqimlaridan, axloqiy buzulishlardan, befarqlikdan himoya qilishning samarali vositalaridan biridir. Hadislarda ustoz-shogird munosabatlari ham alohida o'rin tutadi. Muhammad (s.a.v.) o'zlari sahobalarga, shogirdlarga dars berganlar, ularni tarbiyalaganlar. Har bir ilm egasi, ustoz o'z shogirdiga faqat bilim



emas, balki axloqiy fazilatlarini ham singdirishi kerak. "Olimlar – payg'ambarlarning vorislaridir", –degan hadis ilmdagi mas'uliyat, tarbiyada yetakchilik vazifasini ulamolarga yuklaydi. Ilm egalari doimo halol bo'lishi, ilmuamaldasobit turishi kerak. Shogird esa ustozini hurmat qilishi, unga itoatli bo'lishi lozim. Zamonaviy tarbiyada ham hadislar asosida turli yondashuvlarni ishlab chiqish mumkin. Masalan, maktab va oliy ta'lim muassasalarida hadislarini o'rganishga alohida vaqt ajratish, axloqiy mavzularda darslar tashkil etish, ta'lim muassasalarida o'qituvchilarning hadislar asosidagi pedagogik yondashuvlardan foydalanishi bu borada foydali bo'ladi. Yoshlar ongiga Rasululloh (s.a.v.)ning hayot yo'llari, u zotning sabr-toqati, odobi, fidoyiligi chuqur singdirilishi kerak. Bu orqali jamiyatda axloqiy inqirozlarning oldini olish, sog'lom muhit yaratish mumkin. Bundan tashqari, hadislar orqali ijtimoiy tarbiya ham muhim ahamiyat kasb etadi. Yolg'on gapirmaslik, odamlarni aldamaslik, g'iybat qilmaslik, hasadgo'ylikdan tiyilish, mehr-oqibatli bo'lish, kamtarinlik, bag'rikenglik bularning barchasi hadislarda targ'ib qilinadi. Jamiyatda sog'lom muhit yaratish, insonlar o'rtasida ishonchni mustahkamlash aynan ana shunday axloqiy fazilatlar asosida bo'ladi. Xulosa: Islom dini o'zining asosiy manbalari Qur'oni karim va hadislar orqali inson

hayotining barcha jihatlarini yoritib beradi. Ayniqsa, ta'lim va tarbiya masalalarida hadislarining tutgan o'rni beqiyosdir. Rasululloh (s.a.v.)ning hayotiy faoliyatlari va u zotdan rivoyat qilingan ko'plab hadislar nafaqat diniy, balki ijtimoiy, axloqiy va ma'naviy tarbiyaning mukammal asosidir. Hadislar orqali insoniyatga ilmning fazilati, axloqning ahamiyati, oiladagi tarbiyaning o'rni va ustoz-shogird munosabatlari yuksak qadriyat sifatida ko'rsatib beriladi.

Hadislar asosida qurilgan ta'lim-tarbiya tizimi har qanday jamiyatda barqarorlik, insoniylik va yuksak ma'naviyat poydevorini mustahkamlashga xizmat qiladi. Bugungi jamiyatda yosh avlodni barkamol etib tarbiyalash dolzarb masalaga aylangan. Bu borada hadislar asosida ishlangan metodlar:

sabrli o'rgatish, mehr bilan yondashish,
shaxsiy namuna ko'rsatish,
zamonaviy pedagogik tamoyillar bilan.

Ana shular natija beradi. Hadislarda ota-ona va ustozlarning mas'uliyati, jamiyatdagi muomala madaniyati aniq ifodalangan. Bu esa hadislarining bugungi kunda ham dolzarb ekani va har bir soha uchun bebaho manba bo'la olishini ko'rsatadi. Xulosa qilib aytganda, hadislardagi ta'lim va tarbiya tamoyillari bugungi kun uchun ham katta ahamiyat kasb etadi.